

O'ZBEKISTON KO'P MILLATLI MILLIY G'URURI BALAND YOSHLAR DIYORDIR

Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjonovna
Farg'ona davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori
FarDU Gender tadqiqotlar markazi rahbari

***Annotasiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda Yangi O'zbekiston yoshlariga, OTM talabalariga Ilmiy- marifiy targ'ibot ishlarini bag'rikenglik tamoyillari asosida olib borish, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, Xalqaro baholash dasturlarining bosh maqsadi yoshlarda o'rganayotgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llanishi holati qanday ekanligini aniqlash, rivojini ta'minlashga xizmat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish bilan ijtimoiy muammolarni oldini olish ustuvor vazifalar to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.*

***Kalit so'z va iboralar:** xalqaro dasturlar, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.*

***Аннотация:** В данной статье современная молодежь Нового Узбекистана, студенты высших учебных заведений, ведут научно-образовательную пропаганду, основанную на принципах толерантности, приоритетных направлениях системной реформы высшего образования в Республике Узбекистан, главной цели международного оценочные программы. изложены мнения и комментарии о приоритетных задачах определения состояния применения полученных молодыми людьми знаний в повседневной жизни, разработке программ, служащих обеспечению развития и профилактике социальных проблем.*

***Ключевые слова:** международные программы, новые разработки, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное*

образование, индивидуальные качества, совершенная личность, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методология.

Abstract: *In this article, modern youth of New Uzbekistan, students of higher educational institutions, conduct scientific and educational propaganda based on the principles of tolerance, priority areas of systemic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, the main goal of the international assessment program. Opinions and comments on the priority tasks of determining the state of application of the knowledge acquired by young people in everyday life, the development of programs that serve to ensure development and prevent social problems.*

Key words: *international programs, new developments, modern worldview, scientific and theoretical views, lifelong education, individual qualities, perfect personality, educational standards, civil society, scientific methodology.*

Dunyo miqiyosida qancha millat, elat, xalq, inson bo'lsa xar bir shaxsiy va yosh xususiyatlariga ko'ra aynan bir xil emas . Ya'ni tafakkuri, dunyoqarashi, jamiyada oilada tutgan o'rni xar xil joizligini ta'kidlash mumkun. Masalan ikki xil inson manzarasi. Ular bir biriga qarama-qarshi xarakteri, ruxdagi kishilar vaxolanki xar ikkalasi ham insonlar. Birinchisida g'urur bor, o'z vatanidan, ona tilidan boshqa millat bilishidan faxirlanadi. Ikkinchisi esa g'urursiz, tinch-xotirjam yashashni qiyinchiliksiz umr ko'rishni afzal ko'radi. Zero, faxirlanish-milliy g'ururining negizini tashkil etadi. Ona tili va boshqa tillarni o'rganish orqali - jamiyat voqiya xodisalardan, o'z va o'zgalar yutiqlaridan faxirlana olish bu buyuk ne'matdir. Milliy g'ururi baland insonlar ayniqsa yoshlar boshqa millat xalqlari tili, milliy urf odatlarini e'zozlashga xarakat qiladi. Ya'ni ma'naviy barkamol inson irodasi mustahkam, e'tiqodi butun, qalbida ota-onaga, oilaga, Vatanga, millatga xalqiga ona yeriga mexir va oqibatli bo'lib uni qadirlaydi. Bu esa bizga at-Termiziy, B.Margiloniy, Farobiy, Avloniy, Fitrat, Uvaysiy, Zulfiya kabi g'ururi baland izlanuvchan yoshlarga ajdodlardan qolgan me'rosini mukammal o'rganish xayotiy g'oyalaridan, pedagogik qarashlardan taxlil, tadqiqotlaridan foydalanish imkonini yaratadi. So'nggi yillardagi oliy ta'lim tizimida asosiy etibor mamlakatimiz yoshlarining ta'lim olish uchun keng

imkoniyat va zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgani, bugungi kunda 210 tadan ziyod oliy ta'lim muassasalarida qabul 3,5 baravarga oshganligini ijobiy baxolash mumkin. Aynan oliy ta'lim tizimidagi isloxtlar jarayonida mavjud ko'plab muammolarni yechimini topishga xizmat qilmoqda. Ya'ni oxirgi yillarda oliy ta'lim maktab bitiruvchilarini 9 foizni qamrab olgan bo'lsa 39 foizi yoshlar oliy ta'limda taxsil olmoqdalar.

Demak yurtboshimiz "birinchi navbatda e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta innovatsiya bo'lgan ta'limni qo'llab quvvatlashga qaratamiz".. deb aytishlaricha maqsadga yo'naltirilgan vazifa Davlat tomonidan yoshlarimizga nafaqat sifatli ta'lim beribgina qolmay balki kasb xunarga o'rgatish, ularni bandligini taminlashga berilayotgan e'tibor ayniqsa ayol qizlarga berilayotgan imtiyozlar milliy g'ururi baland yoshlar yurtiga aylanishiga xizmat qilmoqda. Zero ilg'or ta'lim orqali kelajagida bag'rikenglik va inson parvarlik sari yo'l ochildi. Bugungi yoshlarni yoshlar 7 tilda, 12 tilda ommaviy axborot vositalari 140 dan ziyod milliy madaniy markazlar orqali yuksak axloqli va intizomli qilib vatanparvarlik ruxida voyaga yetkazish mamlakatimiz iqtisodiy va siyosiy ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning kaliti xisoblanadi. Taxliliy asosida 41 ta yetakchi universitetlar akademik, iqtisodiy va tashkiliy soxada mustaqillik berilgani xar bir oliy ta'lim muassasasining moliyaviy imkoniyatlarini oshirganini takidlash joiz. Bu esa OTMlarni modiy texnik bazasini takomillashtirishga professor-o'qituvchilar hamda talabalarni ijtimoiy himoyasi darajasini oshishiga imkoniyat yaratayotganini takidlamogchimiz.

Masalan FardU 28141 talaba 651 magistr 196 doktarant, 827 professor-o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda. 2023 yil – indekatorlardan ijobiy boxolanib xalqaro 1000 top oliy o'quv yurtlari safida bo'lish uchun reyting ko'tarish borasida amaliy maqsadli tadbirlar o'tkazilmoqda. Zero FarDUda 2023 yil 30 sentyabrda "Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida malakali kadrlarni tayyorlashning dolzarb muammolari" ilmiy amaliy xalqaro konferensiya (pedagogika kafedrasida), 2023 yil 20 oktyabrda xalqaro konfirensiya "Tukiy xalqlarda milliy urf-odatlarining avlodlararo vorisligini ta'minlashda xotin-qizlarni o'rni" 2023 yil 10 noyabrda (Gender tengligi markazida) Ta'lim ishlab-chiqarish integratsiyasi:

Muammo va navbatdagi vazifalari Forumi anjumanlar ko'p tilda o'tkazilganligi albatta bunday ilmiy amaliy anjumanlar OTMlar bilan o'zaro ishonch o'rnatib kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekiston yoshlariga OTM talabalariga Imiy- marifiy targ'ibot ishlarini bag'rikenglik tamoyillari asosida olib boorish, OTMni maqsadli ma'naviy ishlari yo'l xaritasini tadbiiq etishga yordam beradi. Bu borada YUNESKO bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrdagi 28 sesiyasida qabul qilingan bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi o'zaro xamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo'lidagi muxim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Bu 16-17 noyabr kunlari FarDU talabalari va Farg'ona viloyatini 7 ta milliy madaniy markazlari xamkorligida "O'zbekiston yagona oilada" mavzusida ilmiy amaliy anjuman fikrimiz dalilidir. Ya'ni turli tilda gapirish, turli hil milliy kiyimda yurish, milliy raqsga tushish, kuy kuylash va ijod qilish hamda ilmiy izlanishlarni o'zi xoxlagan tilda bayon qilish muammosi yoq. Xalqimiz qomusi O'zbekiston konstitutsiya 2023 yil bandi belgilab qo'yilgani adolatdandur. Aynan ta'lim tarbiya jarayonida yangi konistitutsiyada foydalanish alohida ahamiyatga ega. Zero, O'zbekiston tarixini dolzarb muammolar xalqaro – konfirensiyada 10 dan ziyod davlat OTMlar olimlari, doktorantlari chiqariladigan o'zbek, rus, ingiliz tilida o'tganligini ijobiy baxolash mumkun.

Demak yuksalayotgan ko'p millatli O'zbekiston OTM talaba yoshlari yetuk mutaxassis shaxs bo'lishi uchun barcha mavjud shart-sharoitlardan foydalanaolishi o'z-o'zini masulyatiga, maqsadiga erishish uchun ta'limni innovotsion usullaridan foydalanib Vatani xalqiga sadoqatgoy shaxsiy milliy g'ururni tarbiyalay olishga bog'liq. Bu borada biz ziyolilarga ma'rifiy madaniyat targ'ibot amaliy tadbirlarni keng ko'lamda olib boraolsak u o'zini samarasini albatta berishiga ishonamiz .

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini

rivojlantirish maqsadida 2019 yil 8 oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi PF 5847 qarori tizimini 2030 yilgacha rivojlanish oliy konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risidagi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) oliy ta‘lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [qarori](#) ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan barcha hujjatlarni hayotga tadbiq etishda metodologik xizmat qilmoqda.

Xulosa tariqasida e‘tirof etish o‘rinliki, Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayoni kadrlar tayyorlashning integratsiyalash tizimini raqamli ta‘limni xalqaro xisoblash tizimini tadbiq etish shart-sharoitlari yaratilishga qaratilgani muhim ahamiyatga ega.

Ko‘p Millatni milliy g‘ururi baland, yurtimiz yoshlariga mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o‘rtoqlashishga hamkorlik qilishni kengaytirishga to‘g‘ri keladi. O‘quv muassasalarining tajribali, na‘munali ta‘lim dasturlari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta‘limga ham tadbiq etilmoqda. Albatta ta‘limga har qanday yangilik, o‘zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi va o‘z salohiyatini beradi.